

## MA'NAVIYAT KO'ZGUSI

*Shapoatova Dilnavoz*

*Termiz davlat pedogogika instituti 1-kurs tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi.*

*Annotatsiya. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob-beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbayi".*

*Kalit so'zlar: Kitob, adabiyot, ma'naviyat, ko'zgu, milliy, kitobxon.*

**Asosiy qism:** Badiiy asarlar o'zligimizni anglovchi ma'naviy ko'zgudir.

Kitob, avvalo hayotiy maktab, ma'naviyat manbayi. U kitobxonni xayot bilan tanishtiradi, unda hayotni sevis, yashash mohiyatini anglash hislarini tarbiyalaydi. Atrof-muhitga, tabiatga ijobiy munosabatini shakllantiradi, inson xarakterining murakkabliklarini tushuntiradi, ruhiy qiyofaning rangin qirralarini kashf qilish qobiliyatini, ona Vatanga, xalqiga sadoqatli bo'lish tuyg'usini o'stiradi. Badiiy adabiyot o'qish orqali kitobxonning badiiy idroki, mustaqil fikrlash qobiliyati, mutolaa madaniyati, Vatan taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usi tarbiyalanadi. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili - bu kitobga do'st bo'lish va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir, Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi.

Badiiy asarlarni o'qish jarayonida biz asar qahramonlari bilan birgalikda past-baland yo'llarni bosib o'tamiz. Asar qahramoni bilan birgalikda ulg'ayamiz, oq-qorani ajratishga kirishamiz. Ular bilan birga yaxshi-yu yomon kunlarni o'tkazamiz, ularning og'riqli dardlarini ham his qilamiz. Asar voqealaridan, personajlar rivojidan

xulosalar chiqaramiz. Umuman olganda adabiyot ko'zgu misoli o'zligimizni anglashga yordam beradi.

Darhaqiqat, kitob o'qimagan insonning ma'naviyati bo'lmaydi. Dunyoqarashi past bo'ladi, olam sirlarini bilmoq istasak ko'p kitob o'qishimiz kerak. Zero, dunyoni faqat ilm bilan zabt etish mumkinli bugungi kunda hech kimga sir emas. Ilmni chuqur egallashning yo'li esa bitta- kitob o'qishdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "Adabiyot nazariyasi" Sharafjon Sariyev Toshkent 2019
2. "Navoiy asarlari tarjimai" Abduqodir Hayitmetov